



TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLAR

*Kurbanova Shaxnoza Raxmatullayena,
Quvvatova Mexribon Usanova*

Annontatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik va semantik muammolar haqida batafsil ma'lumotlar, misollar va yechimlar beriladi.

Kalit so'zlar: tarjima, leksik transformatsiyalar, sinonim, nomutanosiblik, fikriy g'alizlik, termin, leksik muvofiqlik, tarjimada ekvivalentlik, ibora.

Insoniyat o'z kamoloti davrida qo'liga kiritgan kashfiyoti bu - til. Yer yuzining turli qit'a va mintaqalarida bir necha ming yillar davomida mavjud bo'lgan odamzod o'z qiziqishlari, imkoniyatlari, qadriyatları, manfaatlarını tarjima vositasida namoyon qiladi. Q. Musayevning²⁴ fikriga ko'ra, insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima-bir tilda yaratilgan matnni, uning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan boshqa til vositalari bilan qayta yartishdir.

Tarjimonning kompetensiyasi tarjimaning qay darajada mukammal bo'lishini belgilab beradi. O'zbekistonda tarjimachilik sohasining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan G'. Salomov o'zining “Tarjima nazariyasiga kirish” asarida tarjimaga quyidagicha izoh beradi: “Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir”. Ushbu mulohazaga tayanib tarjimani o'zga tildagi ma'lumotni o'z tilida qayta bayon etish san'ati bilan bog'liq hodisa deb yuritishimiz mumkin. Biron matnni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish lingvistikaga oid jarayondir.

Tarjima matnidagi so'zning ma'nosini to'liq yetkazish uchun so'zlarni to'g'ri tanlash tarjimaning asosiy va eng qiyin vazifalaridan biridir. Ushbu vazifaning murakkabligi so'zning murakkab tabiatini, uning ko'p qirrali va semantik boyligi bilan belgilanadi.

So'zning ma'nosini uning ishlatilishi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ko'pincha, hatto bir ma'noli inglizcha so'z ham, ma'nosining kengligi tufayli, keng muvofiqlikka ega bo'lishi mumkin va uning qo'llanilishi o'zbek tilida so'zning ishlatilishiga to'g'ri kelmaydi, buning natijasida u o'zbek tiliga turli so'zlar bilan tarjima qilinadi.

Masalan:

a young man - yosh yigit;

a young child - kichik bola;

young in crime - tajribasiz jinoyatchi;

the night was young - bu kechaning boshlanishi edi; tun endigina kirdi

Tarjimada turli so'zma-so'z, g' aliz birikmalarini qo'llashdan qochish, uning o'rniga adabiy, hamma tushunadigan, yorqin so'zlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalilanadi. Leksik tranformatsiyalar tarjima nazariyasida

²⁴ G'. Salomov Tarjima nazariyasiga kirish. T.,2005. 352 b.

so‘zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Bugungi kunga qadar tarjima qilish jarayonida tarjimonlar ba’zi muammolarga duch kelishmoqda.

Misol uchun, “*to be*” fe’lini oladigan bo‘lsak, aslida bu fe’l o‘zbek tilidagi “bo‘lmoq” fe’liga mos keladi. Biroq bu fe’lning ma’nosini shunchalik kengki, o‘zidan keyin keladigan so‘zga qarab ma’nosini ham tovlanadi. Yordamchi fe’l sifatida bu ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan va turli ma’noli bo‘lganligi uchun transformatsiyaga uchraydi. Aksariyat hollarda bu yordamchi fe’l o‘zbek tilida tire (-) yoki -dir qo‘srimasiga mos keladi. Masalan, “She is an actress” va “She is at school” gaplaridagi farqlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, semantik jihatdan neytral hisoblangan “*thing*”, “*matter*”, “*stuff*”, “*challenge*” kabi so‘zlarda transformatsiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki bu so‘zlar har gal kontekstga qarab turlicha tarjima qilinadi.

Ba’zi hollarda yoki kontekst talab qilgan paytda transformatsiya emotsiyonal hamda stilistik bo‘yoqdor matnlarni tarjima qilishda ishlataladi. “Why don’t you know she is blind?” - “U ko‘zi ojiz-ku?”. Bu gapni “Uning ko‘zi ojizligidan xabaring yo‘qmi?” deb tarjima qilsak ham bo‘ladi. Ammo gapning avvalgisiga nisbatan gapning emotsiyonallik darajasi ancha past. Shu bilan birga, tarjimada sinonimlarning ham ishtiroti katta. Tadqiqotlardan yaxshi ma’lumki, bir umumiyligi tushunchani anglatuvchi biroq sub’yektiv bahosi va uslubiga ko‘ra farqlanuvchi so‘zlar sinonimlar deyiladi.

Tilshunos A.A. Bragina²⁵ sinonimlarni quyidagicha tushuntiradi: sinonimlar universal lisoniy hodisa bo‘lib, u tilning barcha jabhalarida mavjud. Har bir til o‘ziga xos sinonim va antonimlarga ega. Sinonimlardan foydalanganda, ularning kontekstu al ma’nosini va foydalanish joylari tarjamada xato tushunishlarga olib kelishi mumkin. Sinonimlar o‘zaro uslubiy yoki ijobjiy-salbiy bahosiga ko‘ra farqlanganligi tufayli har doim ham birining o‘rnida ikkinchisi qo‘llana olmaydi. Misol tariqasida “handsome” va “gorgeous” sifatlarini keltirishimiz mumkin. “She is handsome” va “He is gorgeous” misollarida ushbu sifatlarning qo‘llanilishi ma’no g’alizligini yuzaga keltiradi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, yaqin o‘n yillar davomida termin so‘zining o‘rniga atama tushunchasi qo‘llanmoqda Aslida bunday o‘zgartirishni to‘gri deb ayta olmaymiz, chunki atama so‘zining ma’nosini termin so‘ziga nisbatan keng va barcha narsalarning nomlanishida ishlataladi. Aksincha, termin esa muayyan bir sohadagina ishlataladigan birlik hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki termin so‘zi atama so‘zining tor doiradagi bir ko‘rinishi. Quyida terminlarga misol keltirib o‘tishimiz mumkin: leksikologiya, sintaksis, transformatsiya, transliteratsiya kabi terminlar ilmiy terminlar guruhiiga mansub²⁶. Kundalik so‘zlashuv vaqtida gap orasida sof o‘zbekcha so‘zlardan tashqari dunyodagi qanchadan qancha tillardan kirib kelgan so‘zlarni ishlatayotganimizni hayolimizga ham keltirmaymiz. Har bir til va madaniyat o‘ziga xos terminologiyaga ega bo‘ladi. Masalan, ba’zi so‘zlar ma’lum bir madaniyatda aniq bir narsani anglatadi, lekin boshqa tilga, ayniqsa, madaniyatdan uzoq bo‘lgan tilga tarjima qilishda muammo tug‘dirishi mumkin.

²⁵ Брагина А.А. Синонимы в литературном языке. М.: Наука, 1986. - С.4.

²⁶ G’. Salomov Tarjima nazariyasiga kirish. Т.,2005. 352 б.



Misol uchun, "hamburger" atamasi oshxona madaniyati kontekstida deb qabul qilingan. Nima maqsadda biz tarjimada termin va atamalarga e'tibor qaratishimiz kerak?

Bilamizki, ba'zi atamalar yoxud terminlarni o'girayotgan tilimizda ya'ni (target textda) aynan muqobil variant topilmasligi mumkin. Bunday vaqtarda bizning asosiy vazifamiz ma'noni qabul qiluvchiga yetkazib berish hisoblanadi. Bu esa ilmiy til bilan aytganda ekvivalentlik deb yuritiladi. Izlanishlar jarayonida, rus olimlari bergen quyidagi fikr o'zini hali hamon oqlamoqda ya'ni "ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu mukammal tajimon degani emas" darhaqiqat ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu o'sha tilga oid bo'lgan barcha sohasdagi matn va nutqni to'liq tushunarli qilib tarjima qilshi degani emas. Har kim ham til bilishi mumkin ekan, ammo hamma ham tarjimon bo'la olmaydi.

Tarjima jarayonida leksik va semantik muammolarni hal qilish tarjimonlarnig asosiy istak-maqsadlaridan biri hisoblanadi va har bir tarjimon bu sohada o'z fikr va mulohazalarini bildirib, bu muammolarni yechishda o'z taklifini kiritishi lozim.

Biz ushbu maqola so'ngida shuni aytib o'tishimiz joiz deb o'yladik. Har bir yosh tarjimon nafaqat o'z tili va qo'shimcha tillarni (source language and target language) shu bilan bir qatorda muqobilisiz leksik so'zlar, iboralar va terminlarni chuqur o'rganib chiqishi zarur. Bir so'zning bir nechta ma'nolarga ega bo'lishi tarjimada chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Tarjimon so'zning to'g'ri ma'nosini kontekstdan to'g'ri aniqlashi muhim. Tarjima jarayoni ko'plab murakkabliklarni o'z ichiga olsa-da, u bilim, tajriba va madaniyatlararo tushunishni talab qiladi.

Tarjimon ushbu muammolarga qanchalik muvaffaqiyatli yechim topa olsa, tayyorlangan tarjimaning sifati shuncha yuqori bo'ladi.

Foyadallanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Брагина А.А.Синонимы в литературном языке. М.: Hayka, 1986. -C.4.
2. Jalilova L. “Tarjimada leksik-semantik muamollar”.UzMU Xabarlari, 2023,1|5
3. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9555/6162
4. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Darslik. - Toshkent, 2012. 108-115 sahifalar.
5. Musayev Q.Tarjima nazariyasi asoslari Darslik.T.: Uzbekistan Respublikasi FA. «Fan» nashriyoti, 2005.-352 b. <https://anyflip.com/xptus/qeva/>
6. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T.,2005. 352 b.